manfaatlarini saqlashni kafolatlaydi. Sug'urta bozorida ko'plab sug'urta mahsulotlari taklif etiladi, ular orasida hayot sug'urtasi, mol-mulk sug'urtasi, avtomashina bilan bog'liq sug'urta turlari, javobgarlik sug'urta turlari, insonning sog'lig'i va uning baxtsiz hodisalarga uchrashidan sug'urta turlari kabilarni keltirish mumkin. Shu bilan, sug'urta shaxslar va tashkilotlar uchun moliyaviy xavfsizlik kafolatini va barqarorligini ta'minlaydi. Eng asosiysi, sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslarni jamlash va ularni turli iqtisodiy sektorlarga investitsiya qilishi shuningdek, ijtimoiy sohalarga yordam berish orqali ham iqtisodiy tizimda muhim rol o'ynaydi. Bu sarmoyalar mamlakatning infrastrukturasi rivojlanishiga va iqtisodiy barqarorligiga yordam beradi.

Ish o'rinlari yaratish. Sug'urta sohasi ko'plab ish o'rinlari yaratish orqali mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo'shadi. Masalan, sug'urta yo'nalishidagi sug'urta agentlari, anderryterlar, adjasterlar, da'volarni bartaraf etish bo'limi xodimlari va shu kabi boshqa kasblarga bo'lgan talabni shakllantiradi.

Iqtisodiy o'sish va global miqyosdagi integratsiya. Sug'urta bozorlarining globallashuvi mamlakatlar o'rtasida savdo va sarmoyaviy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Sug'urta xizmatlarining xalqaro miqyosda taqdim etilishi mamlakatlarning iqtisodiy hamkorliklarini kuchaytiradi va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

Yuqoridagilar sug'urtaning jahon iqtisodiyotini rivojlanishidagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi va uning iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli o'sishni ta'minlashdagi rolini ta'kidlaydi.

Jahon sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlarining mintaqalararo taqsimlanishi bo'yicha 2018-2024 asosiy tendensiyalariga ko'ra jahon sug'urta bozori katta o'zgarishlarni boshdan kechirdi.



1-rasm. Jahonda sug'urta mukofotlari hajmining o'sishi¹

Manba: Swiss Re institute hisobotlari

Jahonda sug'urta tushumlari o'sish dinamikasiga ega. 2019-yilda bozor barqaror o'sishda bo'lib jahon bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari o'sish sur'atlari o'rtacha darajada bo'lgan. 2020-yilda esa COVID-19 pandemiyasi tufayli global sug'urta talabida pasayish kuzatildi – real hisobda jami sug'urta mukofotlari kamaydi [3]. Shunga qaramay, sug'urta tarmog'i iqtisodiy qiyinchiliklarga chidamlilik ko'rsatdi va 2021-yilda bozor tez tiklanib, 2023-yil oxiriga kelib sug'urta mukofotlari hajm jihatidan 7 trillion AQSH dollaridan oshdi.

Quyida hayot sug'urtasi va hayot bo'lmagan sug'urta sektoridagi alohida tendensiyalar hamda mintaqaviy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

1-jadval. Jahonda hayot va hayot bo'lmagan sug'urta sohalarining ulushlari dinamikasi, 2018-2023-yillar².


Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Life sug'urta mukofotlari, mlrd.doll	2 820	2 916	2 797	2 998	2 813	2 889
Bozordagi ulushi,%	54,3	46,3	44,5	43,7	41,5	40,2
Non life sug'urta mukofotlari, mlrd.doll	2 373	3 376	3 490	3 863	3 969	4 297
Bozordagi ulushi,%	45,7	53,7	55,5	56,3	58,5	59,8

Manba: Swiss Re institute hisobotlari

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi

2019–2022 yillarda jahon sug‘urta bozori avvalo pandemiya ta’siridagi keskin o‘zgarishlar va keyingi tiklanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Sug‘urta bozorining hayot sug‘urtasi segmenti 2020-yilgi inqirozdan eng ko‘p zarar ko‘rgan bo‘lsa, 2021-yilda u tez sur‘atlar bilan tiklandi. Hayot bo‘lmagan sug‘urta segmenti esa butun davr mobaynida nisbatan barqaror bo‘lib, pandemiya paytida ham o‘lishini to‘xtatmadi – bu segmentdagi sug‘urtachilar narxlarini oshirish orqali chiqimlarni qoplash va foydalilikni saqlash imkoniga ega bo‘ldilar. Makroiqtisodiy muhit o‘zgarishlari (YAIM o‘lishi yoki pasayishi) sug‘urta talabiga tez ta’sir etgani ko‘rindi – iqtisodiy o‘lish qayta tiklangan 2021-yilda sug‘urta bozori o‘rtacha yillik trenddan baland o‘lishni qayd etdi, aksincha, iqtisodiy sekinlashuv va yuqori inflyatsiya kuzatilgan 2022-yilda o‘lish sekinlashdi yoki real ko‘rsatkichlarda qisqardi.



2-rasm. Hayot bo‘lmagan sug‘urta sohasi sug‘urta mukofotlarning global bozor ulushi va 2024-yilda faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha hajmlar (mlrd.dollar) [5]

Jahon sug‘urta amaliyotida baxtsiz hodisalardan sug‘urta va tibbiy sug‘urtani o‘z ichiga olgan sog‘liq bilan bog‘liq sug‘urta turlari eng katta ulushga ega. Keyingi o‘rinda esa personal liniyada avtosug‘urta turadi.

Swiss Re institutining 2024–2026 yillar uchun prognozlariga ko‘ra, global xususiy tibbiy sug‘urta bozori asosan AQSH hissasiga (80%) to‘g‘ri keladi va 2025–2026-yillarda real o‘lish sur‘ati 2,5% gacha pasayishi kutilmoqda. Avtomotor sug‘urtasi bo‘yicha jahon mukofotlari 2026-yilga kelib 1,3% gacha tushishi, mulk sug‘urtasi esa 2025-yilda 2,4% gacha pastlashi prognoz qilingan. Sog‘liqni saqlashda inflyatsiya va ish haqi xarajatlari yuqori bo‘lib qolishi sababli narxlar nisbatan barqaror saqlanishi ta’kidlanadi [5].

Shuningdek, javobgarlik sug‘urtasi rivojlangan mamlakatlarda 2025-yilda 3,6%, 2026-yilda 2,6% o‘lishi kutilmoqda. Xitoy va rivojlanayotgan Osiyoda tijorat faoliyati kengayishi va huquqiy islohotlar hisobiga yuqori sur‘atda o‘lish qayd etiladi [5].

Swiss Re tahlillariga ko‘ra, ayrim ixtisoslashgan segmentlarda (kiber sug‘urta, kredit qaytmasligi sug‘urtasi, dengiz sug‘urtasi) tariflar, savdo hajmidagi o‘zgarishlar va global noaniqliklar o‘lishni cheklashi mumkin. Shu bilan birga, parametrik sug‘urta, mikrosug‘urta, ESG tamoyillari va raqamli sug‘urta kabi yo‘nalishlar sug‘urta xizmatlarini modernizatsiya qilishda asosiy drayver bo‘lib qoladi [5].


Umuman olganda, Swiss Re ma’lumotlari jahon sug‘urta bozoridagi kelgusi ikki yilda o‘lish sur‘atlari birmuncha sekinlashishini, lekin rivojlanayotgan bozorlar va yangi sug‘urta yo‘nalishlari milliy bozorlar uchun katta imkoniyatlar yaratayotganini ko‘rsatadi [5].

2-jadval. Jaxon mintaqalari kesimida sug'urta tushumlari dinamikasi, mlrd. AQSH dollarida³, 2018-2023-yillar.

Mintaqa/bozor	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Amerika	760 1	750 2	806 2	032 3	301 3	592 3
AQSH va Kanada	597 1	593 2	674 2	880 2	131 3	397 3
Lotin Amerikasi va Karib	163	157	132	152	170	195
YEMEA	751 1	797 1	727 1	992 1	757 1	833 1
Ilg'or YEMEA	561 1	603 1	541 1	773 1	562 1	625 1
Riv-yotgan Yevropa va Markaziy Osiyo	80	81	79	83	81	102
Yaqin Sharq va Afrika	110	113	107	136	113	106
Riv-yotgan Yaqin Sharq	41	45	47	62	43	42
Afrika	68	68	60	74	70	64
Osiyo-Tinch okeani	683 1	745 1	755 1	837 1	725 1	762 1
Ilg'or Osiyo-Tinch okeani	928	934	903	911	804	819
Rivojlanayotgan Osiyo	755	811	851	926	921	943
Xitoy	575	617	656	696	698	724
Riv-yotgan Osiyo (Xitoyisiz)	180	194	195	229	223	219
Jahon	193 5	293 6	287 6	861 6	782 6	186 7
Rivojlangan bozorlar	086 4	131 5	118 5	564 5	497 5	841 5
Rivojlanayotgan bozorlar	107 1	162 1	169 1	296 1	285 1	345 1

Manba: Swiss Re institute hisobotlari


Jahon sug'urta mukofotlari hajmi mintaqalar bo'yicha juda nomutanosib taqsimlangan. Agar yillar kesimida qaranganda, 2022-yil yakuniga ko'ra, global darajada to'plangan sug'urta mukofotlari taxminan 6,8–7 trln. AQSH dollarini tashkil etdi. Bu umumiy hajmning qariyb yarmi Amerika mintaqasi hissasiga to'g'ri keladi. Jumladan, faqatgina AQSH va Kanada davlatlari (Shimoliy Amerika) dunyo sug'urta bozorining 46% ulushini ta'minlagan, agar Janubiy Amerika (Lotin Amerikasi) qo'shib hisoblansa, butun Amerika qit'asi bo'yicha ulush 49%ga yaqinlashadi. Yevropa, Yaqin Sharq va Afrika davlatlaridan iborat EMEA mintaqasi umumiy jahon bozorining taxminan 26%ini tashkil etadi, ya'ni to'rttdan bir qismidan sal ko'proq. Shu bilan birga, Osiyo–Tinch okeani mintaqasi ham jahon sug'urta mukofotlarining chorak qismiga yaqinini beradi – 2022-yilda bu mintaqaning ulushi taxminan 25% ni tashkil qildi.

3-rasm. 2018-2023 yillarda sug'urta tushumlarining mintaqalardagi ulushining dinamikasi, %da⁴

Manba: Swiss Re institute hisobotlari

3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi



4-rasm. Sug'urta tushumlarining mintaqalardagi ulushining 2023-yil yakuni bo'yicha xolati, %da⁵

Manba: Swiss Re institute hisobotlari

Yuqoridagi rasmlardan mintaqalar kesimidagi ulushlar yillar davomida ma'lum darajada o'zgarganini ko'rish mumkin. Masalan, Osiyo bozori keyingi yillarda jadal o'sib, uning ulushi asta-sekin oshib bormoqda. 2020 yilning o'zida Osiyo–Tinch okeani mintaqasi dunyoning eng yirik sug'urta hududlaridan biriga aylandi - uning jahon bozoridagi ulushi 27,9%ga chiqib, ilk marta Yevropadan yuqori bo'ldi, EMEA ulushi esa o'sha yili 27,5% edi. Shunday bo'lsada bu hududlar ulushi keyingi yillarda pastladi (2-rasm). 2019-yilga nisbatan, 2022-yilga kelib rivojlanayotgan davlatlar sug'urta bozorining umumiy ulushi 18,6% dan 19,0% ga ko'tarildi, ya'ni ikki ulush punktga yaqin o'sish qayd etildi. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasi sug'urta bo'yicha eng yirik rivojlanayotgan bozor hisoblanadi – 2022-yil yakunlariga ko'ra Xitoyning yakka o'zi global sug'urta mukofotlarining 10% dan ortig'ini tashkil etgan (3-rasm), o'sha yili ~698 mlrd. dollar, 2023-yil yakuni bo'yicha esa 724 mlrd. dollar mukofot yig'ilgan (2-jadval). Mazkur ko'rsatkich bilan Xitoy jahonda AQSHdan keyingi ikkinchi eng yirik sug'urta bozoriga aylandi, va umuman Osiyo mintaqasi sug'urta hajmi jihatidan Yevropa bilan tenglashib qolganini ko'rish mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, jahon sug'urta bozori asosan rivojlangan davlatlar xisobiga to'yingan — 2023-yilda jami mukofotlarning 81% ulushi rivojlangan bozorlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar hissasi 19% ni tashkil etgan, xolos. Lekin, vaqt o'tishi bilan Osiyo va boshqa rivojlanayotgan mintaqalarning ulushi asta-sekin ortib borganini ko'rish mumkin, bu esa kelgusi yillarda jahon sug'urta mukofotlarining mintaqalararo taqsimoti yanada diversifikatsiyalashishi mumkinligidan dalolat beradi.

Jahon tadqiqot institutlari berigan ma'lumotlariga⁶ tayangan holda, shuni aytish mumkinki, mintaqaviy nuqtayi nazardan, sug'urta bozoridagi ulushlar tarixiy jihatdan boy mamlakatlar foydasiga yuqori darajada konsentratsiyalashgan bo'lsa-da, so'nggi tendensiyalar Osiyo va boshqa rivojlanayotgan bozorlarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Xitoy, Hindiston, Janubi-Sharqiy Osiyo kabi bozorlarda sug'urta sohasidagi o'sish sur'atlari an'anaviy Yevropa yoki Shimoliy Amerika bozorlariga nisbatan tezroq bo'lmoqda. Bu esa yaqin kelajakda jahon sug'urta bozorining mintaqalararo taqsimoti va raqobat muhitida o'zgarishlar bo'lishini anglatadi – yangi drayverlar va yetakchi bozorlar paydo bo'ladi.

Shuningdek, xalqaro ma'lumotlar natijasiga ko'ra, pandemiya sug'urtaga bo'lgan ehtiyoj va yondashuvlarda ma'lum paradigma siljishlarini keltirib chiqardi. Aholi orasida turli xatarlardan xabardorlik oshdi, shu jumladan sog'liqni saqlash va hayotni sug'urtalashga bo'lgan qiziqish orta boshladi. Korxonalar miqyosida esa biznesning uzluksizligi, ta'minot zanjiri xatarlari va kiberxavflar kabi sohalarda sug'urta himoyasiga talab oshdi. Sug'urta kompaniyalari raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi biznes modellarga o'tishni tezlashtirdi, chunki lokdaunlar davrida onlayn sug'urta xizmatlari ko'rsatish ahamiyati oshgan edi. Bu tendensiyalar uzoq muddatda sug'urta bozorining o'sishida qo'shimcha musbat omil sifatida namoyon bo'ladi.

⁵ Muallif ishlanmasi

⁶ iii.org; allianz.com; insurancejournal.com; statista.com; sigma re

AQSH. AQSH jahondagi eng katta sug‘urta bozori bo‘lib, so‘nggi o‘n yillikda o‘z yetakchiligini mustahkamladi – global ulushi 44% ga yetgan [1]. AQSH bozorida hayot sug‘urtasi hamda mol-mulk va javobgarlik (P&C) sug‘urtasi segmentlari ham hajm, ham innovatsiya bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. 2022-yilda asosan P&C segmenti hisobiga o‘shish kuzatilgan bo‘lsa, 2023-yilda hayot sug‘urtasi tezlashib 8,4% ga o‘sdı (odamlarning uzoq muddatli jamg‘arma va annuitet mahsulotlariga qiziqishi ortdi). Darhaqiqat, AQSHda pensiya yoshi yaqinlashib kelayotgan avlod annuitet va jamg‘arma sug‘urtasiga talab bildirmoqda – 2024-yilda AQSHda individual annuitet savdolari \$400 mlrd dan oshishi kutilmoqda, bu o‘tgan o‘n yillikdagi o‘rtacha \$234 mlrd ko‘rsatkichidan ancha yuqori. Shu bilan birga, AQSHning P&C bozori ham kengayishda davom etyapti; xususan, avto, turar-joy va biznes mulk sug‘urtasida mukofotlar hajmi oshmoqda. So‘nggi yillarda kuchaygan tabiiy ofatlar tufayli zararlar oshib, 2023-yilda AQSH nohayot sug‘urta sektorining kombinatsiyalashgan ko‘rsatkichi 103% atrofida bo‘lib, ko‘p kompaniyalar zarar ko‘rdi. Biroq tariflarni ko‘tarish va risklarni ehtiyotkor boshqarish hisobiga 2024–2025-yillarda foydalilik tiklanib, kombinatsiyalashgan ko‘rsatkich 98,5% gacha yaxshilanishi kutilmoqda. Umuman olganda, AQSH bozorida raqamli xizmatlar joriy etish, mahsulotlarni shaxsiylashtirish va yangi risk turlarini qamrab olish (masalan, kiberxavfsizlik, iqlim bilan bog‘liq risklar) asosiy rivojlanish yo‘nalishlaridir [4].

Yevropa. Yevropa sug‘urta bozori an‘anaviy ravishda AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi, biroq u to‘yingan va sekin o‘svuvchi bozor hisoblanadi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida sug‘urta sektori yalpi ichki mahsulotga nisbatan yuqori ulushga ega, ammo so‘nggi yillarda ayniqsa hayot sug‘urtasiga talab sust bo‘ldi – uzoq davom etgan past foiz stavkalari muhitida 2011–2021 yillarda G‘arbiy Yevropada hayot sug‘urtasi yiliga atigi 1,1% o‘sdı, bu avvalgi o‘n yilliklarga nisbatan ikki baravar sust degani. Yevropada bozorning yirik qismi Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Masalan, Buyuk Britaniya ~\$0,37 trln va Fransiya ~\$0,28 trln mukofot bilan dunyoda 3-5 o‘rinlarda. So‘nggi o‘n yillikda Yevropaning global ulushi bir muncha kamaydi – masalan, 2011-yilda G‘arbiy Yevropa va Yaponiya birgalikda dunyo bozorining 44% ini tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 34,5% gacha tushdi. Shunga qaramay, Yevropa bozori barqaror: mulk va avto sug‘urtasi talabining iqtisodiy o‘shish bilan bog‘liqligi tufayli, iqtisod barqaror bo‘lgan davrlarda nohayot sug‘urta segmenti Yevropada yiliga ~4-5% o‘shishga erishgan. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida sug‘urta bozori hajmi hali kichik, lekin o‘shish sur‘ati yuqoriroq. Masalan, Polsha, Turkiya, Rossiya kabi mamlakatlar har biri global bozorning ~0,3% atrofida ulushga ega. Yevropada 2023 yilda foiz stavkalarining oshishi hayot sug‘urtasini biroz jonlantirdi, lekin iqtisodiy noaniqlik va inflyatsiya fonida uy xo‘jaliklarining sug‘urtaga qo‘shimcha xarajat qilish istagi cheklangan bo‘lib qolmoqda. Yevropa sug‘urta kompaniyalari raqamli transformatsiya, xarajatlarni optimallashtirish va ESG talablariga javob berish kabi strategiyalarga e‘tibor qaratib, past o‘shish muhitida rentabellikni saqlashga harakat qilmoqdalar.

Osiyo bozori. Osiyo dunyodagi eng tez o‘sayotgan sug‘urta bozorlariga ega mintaq bo‘lib, unda rivojlangan va rivojlanayotgan bozorlar birga mavjud. Yaponiya an‘anaviy yirik bozor bo‘lib, taxminan 362 mlrd. dollarlik sug‘urta mukofoti bilan global bozor ulushi bo‘yicha dunyoda 5-o‘rinda, ammo iqtisodiy stagnatsiya va aholi qarishi bois sug‘urta talabi deyarli o‘smayapti yoki qisqarmoqda. Aksincha, Xitoy va Hindiston kabi yirik rivojlanayotgan bozorlarda sug‘urtaga talab jadal oshib bormoqda. Xitoy sug‘urta bozori hajmi 2023-yilda \$723 mlrd, dollar va global ulush ~10% bilan 2-o‘ringa chiqib oldi. O‘shish sur‘ati dunyoda eng yuqorilardan – yaqin o‘n yillikda Hindiston sug‘urta bozori yiliga 13,6% o‘shishi prognoz qilinmoqda [1]. Osiyoning boshqa qismlarida ham ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda: Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida (Indoneziya, Malayziya, Vetnam va boshqalar) o‘rta sinf kengayib, risklardan xabardorlik oshishi barobarida sug‘urta bozori yiliga 5–10% atrofida o‘smoqda. Osiyo mintaqasi ayniqsa hayot sug‘urtasi segmentida “dunyoviy” drayver hisoblanadi – 2023-yilda Osiyoda hayot sug‘urtasi mukofotlari 1 hajmi 4,9% ga oshib, Osiyoning jahon hayot bozori ulushi 39% ga yetdi [1].

Rivojlanayotgan mamlakatlar (Lotin Amerikasi, Afrika, Markaziy Osiyo). Rivojlanayotgan bozorlar – Lotin Amerikasi, Afrika, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlari – jahon sug‘urta bozorida hozircha kichik ulushga ega, biroq ularda katta o‘shish salohiyati mavjud. Masalan, Lotin Amerikasi mamlakatlarining umumiy hissasi 2023-yilda atigi taxminan 2–3% ni tashkil etdi (eng yirik mintaqaviy bozor Braziliya global ulush 1,2%). Afrika qit‘asida sug‘urta bozori juda kichik – butun Afrika bo‘yicha sug‘urta kirib borish darajasi o‘rtacha 3% dan kam, bu dunyo o‘rtacha 7% ko‘rsatkichidan ancha pastdir. Afrikada Janubiy Afrika Respublikasi mintaqadagi eng rivojlangan bozor bo‘lib, hatto hayot sug‘urtasi kirib borish darajasi 12% dan oshgan [2], bu global o‘rtachadan yuqorini tashkil qiladi, lekin aksar boshqa davlatlarda sug‘urtalash darajasi 1-2% atrofida yoki undan ham kam. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham sug‘urta sektori endigina rivojlanmoqda – masalan, O‘zbekistonning sug‘urta kirib borish darajasi 2023 yilda atigi 0,7-0,8% ni tashkil etdi (nohayot sug‘urta 0,55% va hayot sug‘urta 0,17%). Bu shuni anglatadiki, iqtisodiyotning ushbu segmenti juda past o‘smoqda, va ayni paytda hukumatlar va kompaniyalar tomonidan aholini sug‘urtaga jalb etish bo‘yicha dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda. Rivojlanayotgan bozorlarda o‘shish sur‘ati yuqori: masalan, Afrika va Osiyoning rivojlanayotgan davlatlarida nohayot sug‘urta mukofotlari 2023–2024 yillarda yiliga 6–7% ga o‘shishi kuzatildi. Ushbu mamlakatlarda mikrosug‘urta va arzon, sodda sug‘urta mahsulotlari orqali aholining yangi qatlamlarini qamrab olish tendensiyasi kuchli. Shuningdek,

xalqaro sug‘urta kompaniyalari bu hududlarda hamkorlik va investitsiyalar orqali bozorga kirib kelmoqda – bu yaqin yillarda Lotin Amerikasi, Afrika va Markaziy Osiyoda sug‘urtalash darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Shimoliy Amerika va G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi sug‘urta bozorlarining rivojlanishi turlicha xususiyatlarga ega bo‘lsada, rivojlanish bo‘yicha ilg‘or hisoblanadi. Quyida ushbu ikki mintaqaga uchun asosiy xususiyatlar va rivojlanish omillari keltirilgan.

Shimoliy Amerika, ayniqsa AQSH va Kanada, jahon sug‘urta bozorida yetakchi o‘rinlardan biriga ega. 2023-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, AQSH va Kanada bozori sug‘urta tushumlari \$3,397 milliard dollarga yetgan, bu 2022-yilga nisbatan 3,7% o‘shishni ko‘rsatadi. Sug‘urta sohasida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, jumladan sun‘iy intellekt, ma‘lumotlarni katta miqdorda tahlil qilish va avtomatlashtirilgan jarayonlar, sug‘urta kompaniyalariga samaradorlikni oshirish va mijozlarga yangi xizmatlar taklif qilish imkonini bermoqda. Shimoliy Amerika sug‘urta bozori keng turdagi sug‘urta mahsulotlarini taklif etadi, bu jumladan sog‘liqni saqlash sug‘urtasi, hayot sug‘urtasi, avtomobil sug‘urtasi va korporativ sug‘urta turlaridir.

G‘arbiy Yevropa sug‘urta bozorining tez taraqqiy etish sabablaridan biri shubhasiz yuqori sug‘urta madaniyatidir. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida aholi orasida sug‘urtaga bo‘lgan ishonch yuqori hisoblanadi. Bu madaniyat sug‘urtaning turli shakllarini qabul qilishni kuchaytirgan va sug‘urta bozorini rivojlantirishga yordam bergan. Shu bilan birga sug‘urtaning rivojlanishiga mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik katta ta‘sir etadi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror bo‘lib, bu sug‘urta bozorining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Barqaror iqtisodiy vaziyat sug‘urta mahsulotlariga talabni oshiradi. Shu bilan birga, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida sug‘urta sohasida ko‘plab islohotlar amalga oshirilgan. Hukumatlar sug‘urtani rag‘batlantirish va unga qulay muhit yaratish orqali investitsiyalarni jalb qiladi va bu bilan sug‘urta bozorining o‘shishini ta‘minlaydi. Demografik o‘zgarishlar ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi, hususan, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida aholining qarishi davom etmoqda, bu esa sog‘liqni saqlash va hayot sug‘urtasi bo‘yicha mahsulotlarga talabni oshirib, sug‘urta bozorini yanada o‘shishiga ta‘sir etmoqda.

Xalqaro sug‘urta va xisobot tashkilotlarining rasmiy ma‘lumotlari asosida shuni keltirish mumkinki, kelgusi yillarda sug‘urta soxasining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va to‘lov qobiliyatini saqlash standart tizimi tobora dolzarbligi oshadi. Jahon sug‘urta bozori yuqori foiz stavkalari, moliyaviy bozorlardagi noaniqlik va geosiyosiy keskinliklar ta‘sirida yangi bosqichga o‘tmoqda. Solvency II va ESG kabi xalqaro standartlarning kuchayishi kompaniyalardan ssenariyli modellashirish, real-time ma‘lumotlardan foydalanish va portfelni diversifikatsiya qilishni talab qilmoqda. Bunday sharoitda sug‘urta kompaniyalari an‘anaviy modellardan voz kechib, raqamli transformatsiya, ma‘lumotlardan keng foydalanish va innovatsion biznes-modellarga o‘tish orqali raqobatbardoshligini saqlab qolishga intilmoqda.

Sug‘urta bozorida asosiy tendensiya sifatida sun‘iy intellektga asoslangan andarrayting va risklarni baholash jarayonini avtomatlashtirish, tariflarni dinamik tarzda shakllantirish va personallashtirilgan xizmatlar orqali mijozlar tajribasini yaxshilashni ko‘rish mumkin. Shuningdek, an‘anaviy agentlik va brokerlik vositachilik yo‘nalishlaridan tashqari boshqa yo‘nalishlar – elektron tijorat, turur-joy arendasi, transport platformasi va shu kabilarga integratsiyalash orqali yangi sug‘urta sotish kanallari paydo bo‘lmoqda va kompaniyalar yangi turdagi bozor segmentiga kirib bormoqda.

Kam ta‘minlangan aholi yoki keng qamrovli iste‘molchilar uchun mo‘ljallangan mikrosug‘urta polislari mobil ilovalar orqali sug‘urtani arzon va tez xizmat turiga aylatirdi.

Mijoz xulq-atvorini o‘rganishning yangi sohaları – ijtimoiy tarmoqlar, smart uylar, fitnes braslet kabi intellektual narsalar sug‘urta hajmi va shartlari real vaqtda mijozning hayotiga tezkor moslashish imkoni yaraldi.

Sug‘urta kompaniyalari risklarni baholashda sun‘iy intellektidan keng foydalana boshladi. Millionlab tranzaksiyalar, ekologiya, geolokatsiya yoki kliyentik xatti-harakatlar bo‘yicha real vaqtda ma‘lumotlar yig‘ilishi an‘anaviy qoidalarga asoslangan andarraytingdan ko‘ra aniqroq natijalar beradi. Bu nafaqat tariflarni dinamik ravishda belgilash, balki personallashtirilgan xizmatlar orqali mijozlar tajribasini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Tabiiy ofatlardan kelib chiqadigan zararlar oshgani sari klimat xavflarini modellashirish va parametrik sug‘urta turlari ommalashmoqda. Sputnik ma‘lumotlari va AI katastrofa modellari orqali kompaniyalar xavfni aniqroq baholaydi va to‘lovlar tezkor amalga oshadi.

Kiber risklardan himoya qilish polislari dinamik sotish xolatiga o‘tmoqda. Sug‘urta xizmatlari kompleks tarzda ichiga kiberxavf monitoringi, endpoint-himoya va tezkor reaksiya xizmatlari kiritilmoqda. Bu kompaniyalar uchun zarar xavfini kamaytiradi, mijoz uchun esa xavfsizlikni oshiradi. Raqamli infrastruktura bilan bog‘liqlik oshishi kiber risk va biznes uzilishlari kabi risklarni ham keltirib chiqarmoqda. Swiss Re hisoblariga ko‘ra, global kiber sug‘urtalari mukofotlari 2023-yilda 2021-yilga nisbatan 60% oshdi va 2026-yilgacha yana o‘shishi kutilmoqda [6].

Ma‘lumotlarga ko‘ra, tibbiy sug‘urtada elektron tibbiy ma‘lumotlar (Electronic Health Records, EHR), sun‘iy intellekt orqali shaxsiylashtirilgan xizmatlar va masofaviy davolash (virtual care) kabi yo‘nalishlar tez rivojlanayotgani qayd etilgan. Bu yo‘nalishlar sug‘urtalashda zararlar xavfini oldindan baholash, profilaktik choralarni kuchaytirish va polislar xarajatini kamaytirish imkoniyatlarini ochadi.

Klimat o'zgarishi, tabiiy ofatlardan kelib chiqadigan zararlar va yashil energiya loyihalarining sug'urtalash ehtiyoji Swiss Re tomonidan muhim tendensiya sifatida belgilangan. ESG talablari kompaniyalarning korporativ mas'uliyatini oshirish, investitsiya portfellarini ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror qilishga yo'nalgan [7].

Ko'rinib turganidek, raqamli sug'urta va sun'iy intellekt sug'urta xizmatlarni yaratish, xizmat sifatini kuzatish, teskari aloqa ma'lumotlaridan samarali foydalanish, tarif shakllantirishda real vaqt doirasida aniqlikka ega bo'lish, anderrayter va aktuariy sifatini oshirish, risk darajasini aniqlash va prognoz qilishning yuqori aniqlikka erishish imkoniyatini oshirmoqda va ko'plab mamalakatlar mana shu yo'nalishdagi ustuvorlikni anglab yetishgan va qo'llashni boshlashdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon sug'urta amaliyotidagi so'nggi tahlillar (Swiss Re, Earnix, Munich Re, KPMG, Deloitte va boshqalar) sug'urta sohasi tezkor o'zgarishlar bosqichiga kirganini ko'rsatmoqda. Bu tendensiyalardan O'zbekiston ham chetda qolmasligi kerak. Quyida mamlakatimiz sharoitida amal qilish mumkin bo'lgan asosiy rivojlanish yo'nalishlarining ilmiy asosi keltirildi.

1. Sug'urta sohasini raqamlashtirish. Jahon sug'urta amaliyotida biznes jarayonlar allaqachon raqamlashtirilgan xolatga o'tdi. Bular, «Insurance-as-a-Service» (IaaS) modeli - infratuzilmani noldan boshlamasdan tayyor biznesni o'z brendi ostida yuritish kabi xizmatlar yoki Insurtech (Insurtech) kabi ilg'or texnologiyalar - avtomatlashtirish, mijozlar tajribasini yaxshilash va biznes jarayonlarini optimallashtirish uchun sug'urta sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash kabilardir. O'zbekistonda ham raqamlashtirish jarayonlari boshlangan. Shunday bo'lsada, jahon amaliyotida samarali natijani berayotgan bir qator usullarni joriy qilish milliy bozor sug'urta xizmatlari sifatini oshiradi, ular tezkor, shaffof va arzon bo'lib ommabop bo'ladi.

2. Intellektual tahlil va shaxsiylashtirilgan polislar. Jahonda ilg'or sug'urta kompaniyalari mijozlar, bozor, iqlim, iqtisodiy muhit va xatto ijtimoiy tarmoqlardan olinadigan katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili va sun'iy intellekt (AI) yordamida riskni aniq baholab, tarifni shaxsiylashtirilgan holda belgilamoqda. Bu yo'l orqali mijoz ehtiyojiga mos, arzon va samarali polislar taklif qilish mumkin.

O'zbekistonda risklarni baholash tizimi hali ancha orqada, kompaniyalarning to'lov qobiliyatini ta'minlash borasida prudensial norma tizimi amal qilsda, tarif siyosatiga kuchli davlat nazorati o'rnatilmagan. Tariflar liberallashtirilgan tarzda kompaniyalar tomonidan belgilanadi va ular tabiiyki aktuariy xisoblarga ko'p ham ahamiyat qaratishmaydi. Bu borada riskni baholashning va tarif ishlab chiqishning innovatsion raqamli va intellektual tahlil usullari dolzarb yo'nalish bo'lib qoladi.

Shuningdek, an'anaviy agentlik va brokerlik vositachilik yo'nalishlaridan tashqari boshqa yo'nalishlar – elektron tijorat, turur-joy arendasi, transport platformasi va shu kabilarga sug'urta xizmatlarini integratsiyalash orqali yangi bozor segmentiga kirib borish mumkin.

3. Tibbiy assistans va telemeditsina xizmatlarini rivojlantirish. Xorijda tibbiy sug'urta xizmatlari keng qamrovli va rivojlangan soha hisoblanadi. O'zbekistonda bu borada majburiy tibbiy sug'urta tizimi endigina amal qilmoqda, ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlariga talab katta bo'lishiga qaramay, xodisalarni nazorat qilishning murakkabligi bu kabi sug'urta xizmatlari rentabelligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Natijada taklif darajasi past. Shuning uchun milliy bozorda korporativ tibbiy sug'urta shartnomalarinigina uchratish mumkin, u ham jami tushumlardagi ulush jihatdan juda kam.

O'zbekistonda 2021-yil yakuniga ko'ra sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar summasi jami 5 trln.so'mni tashkil qilgan. Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish bo'yicha shu davr mobaynida to'lab berilgan sug'urta to'lovlari 35,4 mlrd.so'mni tashkil qildi⁷. Demak, shaxsiy sug'urtaning tibbiy himoya darajasi 1 %ni tashkil qilmoqda, ya'ni ko'rsatilgan tibbiy xizmatlarning 1 % i tibbiy sug'urta polislar orqali qoplab berilgan.

Rivojlangan mamalakatlarda tibbiy assistans sug'urta polisiga qo'shimcha qiymat qo'shuvchi xizmat sifatida keng imkoniyat beradi. O'zbekistonda tibbiy sug'urta hali to'liq rivojlanmagani uchun assistans xizmatlari orqali aholiga tezkor tibbiy yordam va masofaviy maslahat ko'rsatish yo'lga qo'yilishi zarur. Bu borada davlat tomonidan assistans faoliyatini rag'batlantiruvchi mexanizmlarni qo'llash va sohani raqamlashtirish tibbiy sug'urta xizmatlarining ommalashuviga sabab bo'ladi.

4. Mikrosug'urta va kam daromadli qatlamlarni qamrab olish. Dunyoda mikrosug'urta yordamida past daromadli aholi qatlamlari, kichik biznes va gig-iqtisodiyot ishtirokchilari himoya qilinyapti. O'zbekistonda ham SMS yoki mobil ilova orqali kichik miqdorli, qisqa muddatli polislar taklif etish orqali bozorni kengaytirish mumkin.

5. Kibersug'urta va xavfsizlikni oshirish. Dunyoda kiberxavflar ortib boryatgani ma'lum. Shuning uchun kibersug'urta va avtomatlashtirilgan komplayens (RegTech) tizimlari sug'urta kompaniyalariga zamonaviy talablardan orqada qolmaslikka yordam beradi.

Jahon standartlarini milliy bozorga moslashtirish va uni joriy qilishda qonunlar, standartlar va hisobot shakllarida tub o'zgarishlar ro'y beradi. Bu kabi o'zgarishlarni joriy qilishning sustlashuviga asosiy sabablardan

⁷ O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari

biri – tekshiruv jarayonlarining qimmat va ko‘p vaqt talab qilishi, shuningdek, tizimga innovatsiyalarni joriy etishda inson omiliga bog‘liqligidir.

Regulyativ texnologiyalar (RegTech) — bu moliya va sug‘urta sohasidagi qonunchilik va me‘yoriy talablarga rioya qilish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishga qaratilgan texnologiyalar majmuasi hisoblanadi. Avtomatlashgan RegTech tizimi orqali kompaniyalar real vaqtda o‘z ishini qonun talablariga moslashtirib boradi, tekshiruvlar va hisobotlar jarayonini avtomatlashtirish orqali xarajatlarni qisqartiradi hamda shaffoflikni oshiradi. O‘zbekiston uchun ham bu kabi yo‘nalishlar dolzarbdur, xususan yangi xalqaro standartlarni joriy qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish sohani jahon amaliyoti bilan xamoxang rivojlantirish imkoniyatini beradi.

6. Klimat xavflari, yashil sug‘urta va ESG tamoyillari. Jahonda klimat o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiiy ofatlar kuzatiladi. Shuning uchun sug‘urta xizmtalarida parametrik va «yashil» sug‘urta mahsulotlarini ahamiyati ortib bormoqda. Tabiiy ofatlar (sel, qurg‘oqchilik, kuchli shamollar) ko‘payishi natijasida sug‘urta kompaniyalari an‘anaviy polislardan tashqari parametrik sug‘urta mahsulotlarini ham rivojlantirmoqda. Parametrik polislar belgilangan indekslar yoki parametrlar (masalan, yomg‘ir miqdori, xavo harorati, suv sathi) asosida avtomatik to‘lovlarni amalga oshiradi, bu esa tezkor va shaffof sug‘urta xizmatini ta‘minlaydi. O‘zbekiston ham tabiiy ofatlardan xoli emas, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, chorva va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanuvchi fermerlar biznesini himoyalash maqsadida parametrik polislar joriy etish bu borada samarali usul hisoblanadi.

ESG - atrof muhitni muhofaza qilish (Environmental), ijtimoiy mas‘uliyat (Social) va korporativ boshqaruv (Governance) tamoyillarini qamrab oladigan kompleks yondashuv. Sug‘urtada ESG tamoyillarini qo‘llash deganda xavflarni baholashda ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olishni, shuningdek, boshqaruvda shaffoflik va mas‘uliyatni oshirishni nazarda tutadi. Masalan, ESG tamoyilini joriy qilgan sug‘urta kompaniyalari o‘z portfellarini yuqori xatarli, ekologik zararli faoliyatlardan uzoqlashtirib, barqaror va ijtimoiy foyda keltiradigan yo‘nalishlarga investitsiya qiladi. ESG tamoyillarini milliy sug‘urta bozorida joriy qilish esa sug‘urta kompaniyalarining xavflarni kompleks baholashi, sug‘urta portfellarini diversifikatsiya qilish va investitsiyalarni mas‘uliyatli yo‘naltirishiga yordam beradi.

7. Qonunchilik va xalqaro standartlarga moslashish. Xalqaro moliyaviy hisobot va riskka asoslangan kapital talablari (Solvency II kabi)ga bosqichma-bosqich o‘tish sug‘urta kompaniyalariga xalqaro bozorga chiqishni osonlashtiradi va investorlar ishonchini oshiradi.

8. Kadrlar tayyorlash va bilimlarni rivojlantirish. Sug‘urta sohasi rivojlanishi uchun aktuariy, risk-menejer, data tahlilchi kabi mutaxassislar zarur. O‘zbekiston milliy sug‘urta sohasini jadal rivojlantirish uchun oliy ta‘lim va kompaniyalar hamkorlikda tayyorlov dasturlarini yo‘lga qo‘yishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. [Allianz Global Insurance Report 2024 // Allianz](#)
2. [Insurance industry in Africa - Statistics & facts // Statista](#)
3. [Sigma-3-2021-en.pdf](#) "World insurance: the recovery gains pace" // Swiss Re institute
4. [Sigma-1-2024-en.pdf](#) "Natural catastrophes in 2023: gearing up for today's and tomorrow's weather risks" // Swiss Re institute
5. [Sigma-2-2025-en.pdf](#). "World insurance in 2025: a riskier, more fragmented world order" // Swiss Re institute
6. <https://www.swissre.com/press-release/New-digital-risks-call-for-insurance-innovation>
7. <https://reports.swissre.com/2023/property-casualty-reinsurance/insuring-a-renewable-future>
8. [2025 global insurance outlook // Deloitte Insights](#)



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI